

O‘ZBEK TILI DARSLARIDA NUTQIY KO‘NIKMALARNI TAKOMILLASHTIRISH

A.Sultanova,
Nukus DPI O‘zbek tili kafedrası
dotsenti, p.f.f.d (PhD)

Ta’lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarning o‘zbek tili darslarida grammatik materiallarni o‘rganish o‘quvchilarda davlat tilidan dasturiy hajmda oladigan bilim, ko‘nikma va malakalar shakllantirishni ta’minlashning muhim omili hisoblanadi. Davlat tilida orfoepik jihatdan to‘g‘ri so‘zlash, savodli yozish, o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma ravishda to‘g‘ri shakllantirish ma’lum darajada grammatik materiallarning o‘zlashtirilishiga bog‘liq bo‘lib, bunda tilni o‘rganish jarayoni zaruriy ravishda kundalik amaliy nutqiy faoliyat bilan, shu faoliyat kechadigan nutqiy vaziyatlar, leksika mavzulari bilan integratsiyalanadi. Bunda o‘quvchilarni til hodisalari haqidagi ma’lumotlar bilan tanishtirish ishlari ro‘yobga chiqariladi hamda nutqiy ko‘nikmalarni izchil rivojlantirishga erishiladi.

O‘zbek tili darslarida, bir tomondan, o‘quvchilarga filologik ma’lumot berish nutq o‘stirish uchun xizmat qildirilsa, ikkinchi tomondan, nutqiy ko‘nikmalarning erishilgan darajasini yanada takomillashtirish uchun amaliy jihatdan zarur ma’lumotlar beriladi. Bu ta’limdagi bir-biri tomon peshvoz chiquvchi ikki yo‘nalishning o‘zaro integratsiyasidir. Birida dasturiy bilim ustida ish olib borilsa, ikkinchisida nutqiy ehtiyojga ko‘ra til hodisasi tanishtiriladi. Masalan, “Leksikologiya” bo‘limi orqali “Ma’nodosh so‘zlar”, “Uyadosh so‘zlar”, “Zid ma’noli so‘zlar” tarzida izchil ish olib borilsa, o‘quvchining nutqini o‘stirish talabi ushbu izchillikka ehtiyojmand bo‘lmas, balki so‘zni so‘zga bog‘lovchi vositalar olib kiriladi. Yuqoridagi ikki yo‘nalishni bir-biri bilan bog‘lagan holda topshiriqlar ishlab chiqish muhim metodik muammodir.

Lekin so‘nggi yillarda nashr etilayotgan maktab darsliklarida grammatika mavzulari ancha qisqarib ketgan, nutqiy mavzularga ko‘proq e’tibor qaratilgan. Bu esa bir tomondan o‘quvchilarning yozma savodxonligi susayib ketishiga olib kelsa,

ikkinchi tomondan, o'qituvchilarning qo'shimcha adababiyotlardan foydalanib dars o'tishlari lozimligini talab etadi. Chunki yangi darsliklarda qonun-qoidalar, ta'riflar juda kam. Zero, ikkinchi tilni o'rganar ekanmiz, avvalo, uning grammatikasini, orfografiyasi, imlosi, uslubiyat qonun-qoidalarini chuqur o'rganish zarur.

O'zbek tili darslarida til hodisalarini o'rganish integrativ xususiyatga ega. Bunda grammatik atamalar va ularga doir ta'riflar, grammatik vositalar va ularni qo'llash aspektida tutashadi va birlashadi. Leksik va grammatik vositalar nutq o'stirishning asosiy omili bo'lib, bular ham ikki yo'nalish kasb etadi: so'zlashuv nutqiga xos uslub, kitobiy nutqqa xos uslub. Bular o'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmalarini egallash asnosida faol va nafaol leksik hamda grammatik vositalar integratsiyasi sodir bo'ladi.

Nutq o'stirish so'z birikmalaridan gap tuzishga, gaplardan matn yaratishga qarab boradi. Gaplar, matnlar mazmuni orqali real voqelik buyumlari, tabiat hodisalari, ularning nomlari bilan uyg'unlashadi. Matnlar, misollar orqali turli sohalar (tarix, madaniyat, geografiya, urf-odatlar) tutashadi, o'quv fanlariaro aloqa o'rnatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Худаярова, М. Т., & Хасанова, А. Н. (2017). Этнопедагогические воззрения каракалпаков важнейший источник семейного воспитания и социальной адаптации детей. In Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования (pp. 77-82).
2. Kamalovich, A. N. (2020). Mythological basis of unusual images in turkish peoples. *Academicia: An international multidisciplinary research journal*, 10(12), 678-682.
3. Худаярова, М. Т., Буранова, Ш. М., Юсупова, Г. А., & Сапарова, А. З. (2021). Қорақалпоғистон Худудида Яшовчи Туркий Халқлар Тилидаги Таом Номларининг Лексик Қатламлари. *BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMİY JURNALI*, 1(5), 25-32.

4. Tajimuratovna, X. M., Menglibaevna, B. S., Ataxanovna, Y. G., & Zaripbaevna, S. A. (2021). Umumiy O 'Rta Ta'lim Maktablarida O 'Quvchilar Bilimlarini Baholash Va Nazorat Qilishda Elektron Vositalaridan Foydalanish Usullari. BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(5), 16-19.
5. Ibrahim, S., & Aydin, S. (2021). In alisher navoi's friend" hayratul-abror" singing of ethical issues. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 2(01), 23-25.

